

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ILM-FAN VA
MAORIFINING KADRLAR TAYYORLASHDAGI O'RNI*****Norov Odiljon Murodulloyevich****Osiyo xalqaro universiteti**Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlash alohida e'tibor va texnologiyalarni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'timishdagi buyuk bobolarimizning qarashlari, taktika va ilmiy salohiyatini qo'llash muhimdir. Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fan va harbiy ishining bugungi harbiy kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zafarnoma, Temur tuzuklari, metod.

KIRISH

Amir Temur inson salohiyati, komil inson g'oyasini rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. U o'z Tuzuklarida qayd etadikim, «Tajribamda ko'rilgankim, ongi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so'zlari bugungi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishda dasturil amal bo'lmog'i kerak.

Amir Temurning davlatni idora qilishida vazirlar, olimlar va tadbirkor-ishbilarmonlarning roli katta bo'lgan. Shuning uchun ham ularni tanlashga alohida e'tibor bergan. Ular sadoqatli, axloqli, adolatli, tinchliksevar va tashabbuskor bo'lishlari lozim edi.

«Tuzukka ko'ra, vazirlar to'rt sifatga ega bo'lishi shart bo'lgan: toza naslilik va ulug'vorlik, aqlu- farosatlilik, sipo va odmi, raiyat ahlining holidan xabardor bo'lish va ularga g'amxo'rlik qilish, sabru-bardoshli, xushmuomalali bo'lish. Amir Temurning bunday ibratli o'gitlari mustaqil mamlakatimizning boshqarish tizimida, kadrlar tanlash, ularni o'z o'rniga qo'yishda alohida ahamiyatga ega.



Mustaqillikka erishgan mamlakatimiz komil insonni shakllantirish, mamlakat kishilarining salomatligi, jismoniy baquvvatliligiga, mustaqillikka munosabati kabi yo'nalishlarni shakllantirishda ham Temur va temuriylar ma'naviyatining o'rne kattadir. Amir Temur davrida oila va nikoh masalalari davlat ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Shuning uchun ham Amir Temur o'z tuzuklarida shunday ko'rsatadi: «O'g'illarim, nabiralarim va qarindoshlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl- nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sihat - salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmishning nasl- nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan bog'liq barcha qusurlardan holi bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib kelin tushirdim.»

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida dunyoga mashhur allomalarimiz ma'naviy merosini, shuningdek, diniy-irfoniy, tasavvufiy ta'limotlari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'li-dan bormoqdamiz” [1. B. 244]. Bu borada Amir Temur va temuriylar davrida ilmfan taraqqiyoti ijtimoiy-falsafiy omillari mohiyatini bugungi kun nuqtai nazari-dan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va ilmiy asoslangan mezon va mexanizmlarini ishlab chiqish ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Ikkinchi Renessans davri nomi bilan mashhur bo'lgan XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda davlatchilik, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. Ushbu davr ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga asos sifatida IX–XII asrlardagi Markaziy Osiyo hududidagi birinchi Renessans davri yutuqlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Haqiqatdan ham Amir Temur o'zi boshqargan davlat fuqarolarining sihat-salomatligi, jismoniy barkamolligi haqida o'sha davr solnomachilari bir necha bor o'z asarlarida ko'rsatib o'tganligining guvohimiz. Misol uchun, italiyalik Turjjon Beltramus de Minjanyalining «Temurlang hayoti» (1416 y.) nomli kitobida (U



Temurning Turk sultoni Boyazid bilan urushida qatnashgan, Temur urushlarini kuzatgan shaxs) «Amir Temur odamlari juda ham ko'rkam, baquvvat odamlar edi. Ular nasl-nasabiga ko'ra ham ulug'vor ko'rinardi. Ular oddiy xususiyatli, farosatli, mashhur, yoshiga qarab mansabdor bo'lgan. Jang qilish tajribasi yuqori bo'lgan kishilar edi» yozadi [2].

Amir Temur o'zi tashkil qilgan buyuk davlat fuqarolarini sihat-salomatligiga e'tibor bilan qarab, ularning barkamol, sog'lom, baquvvat, ishbilarmon, jang qilishda mohir bo'lishiga alohida e'tibor berib, avlodlar nasl-nasabining buzilishiga ta'sir etuvchi qusurlardan saqlanishga alohida e'tibor bilan qaradi. U hozirgi davrda jahon jamoatchiligini tashvishgasolayotgan g'yohvandlik va ichkilikbozlik kabi illatlarning kelajak avlodlar uchun zararli oqibatlarini o'z vaqtida tushungan va bunga qarshi chora- tadbirlar ko'rgan.

Amir Temur o'gitlarida: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib xotinlariga yaqinlashishini man etdim. Zero, sharobning ta'sirida bunyodga kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta'sir etgay, deb pokiza yo'lni tutdim», deb qayd etadi. Amir Temurning bu o'gitlaridan mustaqil mamlakatimizda komil inson, sog'lom avlodni shakllantirishda ibrat olish katta ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Haqiqatdan ham Amir Temur o'z xalqining ma'naviyatli, e'tiqodli, imonli, Baquvvat bo'lishi bu davlatning, xalqning qudratli kuchga egaligini, imonsiz, e'tiqodsiz xalq hech qachon baxt-saodatga, ma'rifatga erishmasligini qayd etib, o'z tuzuklarida keltiradi. «Dilda e'tiqod butun bo'lsa, aslo naslimiz yo'qolmagay, tilimiz unitilmagay, e'tiqod susaysa til emas, imon ham unitilgay», deb yozadi. Temurning bu ibratli g'oyalari mamlakatimiz kishilari ongida mustaqillikka e'tiqod tuyg'usini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Mustaqil mamlakatimiz zamonaviy harbiy kadrlari ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan me'morchilik san'ati obidalari alohida ahamiyatga ega. O'sha davrda qurilgan me'morchilik binolaridan Go'ri Amir, Shohi Zinda ansabmli maqbaralari,



Shahrisabzdagi Ko'k gumbaz masjidi, Ahmad Yassaviy qabri ustida qurilgan binolar, Registon maydonining shakllanishi, ya'ni Ulug'bek, Tillakori, Sherdor madrasalari, ikki yuz o'n gumbazli Ko'kaldosh jome masjidi, Qozizoda Rumiy maqbarasi va shu kabi me'morchilik obidalarining qad ko'tarishi, Movarounnahrda ilm-fanning, san'atning nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradigan ashyoviy dalillardir. Temur o'zi qurdirgan Oqsaroy peshtoqiga «Qudratimizga shak-shubhang bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boq», deb yozdirganda, u haq edi. Haqiqatdan ham bu tarixiy obidalarining qurilganligi 600-700 yil bo'lishiga qaramasdan salobat to'kib, nafaqat bizning ajdodlarimizni, qolaversa dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda. Demak, hozirgi mustaqil mamlakat yoshlarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda bu me'morchilik san'atining roli kattadir. Biz ziyoldilardan Temuriylar davrida qurilgan bu me'morchilik san'ati o'z bag'rida jumboqlarni mujassamlashtirib turganini yosh avlod ongiga singdirib, ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish shu kunning asosiy vazifalaridandir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma'naviyat mustaqil mamlakatimiz harbiy kadrlarini halollik, poklik, vatanparvarlik, imon-e'tiqod ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur ma'naviyatining mohiyatini chuqur o'rganish va uni xalqimiz ongiga singdirish biz ziyolilarning asosiy burchimizbo'lmog'i kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 244.
2. Turjor Beltramus de Minjanyalining «Temurlang hayoti» (1416 y.) - 212bet.
3. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Toshkent. "O'zbekiston". 2018yil 159-160 betlar.
4. Abdulaxat Muxammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Toshkent. 1994 yil.
5. A.Muxammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Toshkent. 1994 yil.



6. Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II-j., 1-q. Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar muallifi A. O'rinboev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 277.